



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

2023-yil yakuni bo'yicha

YILLIK HISOBOT

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA

Toshkent
2024

Ushbu hisobot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-436-son qarorida belgilangan topshiriqqa asosan tayyorlandi hamda 2030-yilgacha har yili tayyorlanib chop etiladi. Mazkur hisobotda 2023-yil davomida yashil iqtisodiyot va yashil o‘shish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, loyihalar va chora-tadbirlar haqida ma’lumot berilgan.

2023-yil may oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) Boshqaruvchilar kengashining “Muvofiqlikka sarmoya kiritish” mavzusidagi 32-yillik yig‘ilishi doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Yevropa ittifoqi va Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) o‘rtasida “O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyot hamkorligi bo‘yicha” 10,2 mln. yevro miqdorida texnik ko‘mak mablag‘lari ajratilishiga qaratilgan kelishuv imzolandi



Ma’lumki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi doirasida “yashil” va inkluziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlash borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan samarador ishlar amalga oshirilmoqda. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga ko‘maklashishga qaratilgan “Yashil” iqtisodiyot

bo‘yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi loyihasi amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mazkur dastur doirasida qazilma yoqilg‘ilari subsidiyalarini xatlovdan o‘tkazish va qisqartirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruv (MRV) tizimi joriy etish, “yashil” byudjetlashtirish va soliqqa tortishni joriy qilish hamda boshqa yo‘nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur amalga oshirilayotgan loyihalar O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inkluziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, jumladan, qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashga erishish rejalashtirilgan.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) Boshqaruvchilar kengashining 32 yillik yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Moliya vazirlarining iqlim bo‘yicha koalitsiyasi”ga qo‘shilish tashabbusini bildirildi



***Ma’lumot uchun:** Hozirda barcha davlatlar hukumatlari, biznes va fuqarolik jamiyati vakillari “yashil” o‘rta prinsiplarini faol joriy etish orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha harakatlarini birlashtirmoqda. Bugungi kunda Koalitsiyaga 80 dan ortiq davlatlarning moliya vazirlari a‘zo hisoblanadi.*

Ushbu koalitsiya Jahon bankining qo‘llab-quvvatlashi natijasida tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi iqtisodiy va moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda iqlim masalalarini hisobga olish, iqlim bilan bog‘liq asosiy muammolar bo‘yicha xabardorlikni oshirish, moliya vazirliklarida ushbu yo‘nalishdagi salohiyatini oshirish hamda iqlim o‘zgarishini oldini olish bo‘yicha global harakatlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Koalitsiya doirasida ilgari surilayotgan Xelsinki tamoyillari O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlariga mos keladi. Xususan, Xelsinki tamoyillariga muvofiq iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy harakatlarni fiskal siyosat va davlat moliyasini faol jalb etgan holda amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar bilan mutanosibdir. Koalitsiya doirasida ilgari surilayotgan Xelsinki prinsiplarini quyidagilardan iborat:

- siyosat va amaliyotni Parij bitimi doirasida qabul qilingan majburiyatlarga moslashtirish;
- iqlim o‘zgarishi sohasidagi tajriba va amaliy bilimlarni o‘zaro almashish;
- samarali uglerod savdosini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish;
- makroiqtisodiy siyosat, fiskal rejalashtirish, budjetlashtirish, davlat investitsiyalarini boshqarish va xaridlar amaliyotida iqlim o‘zgarishini hisobga olish;
- investitsiyaviy muhitni osonlashtirish orqali iqlim masalalarini moliyalashtirish uchun xususiy manbalarini safarbar qilish;
- Parij bitimi bo‘yicha taqdim etilgan milliy miqyosda belgilangan hissalarini (NDC) shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etish.

O‘zbekistonda mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog‘liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi “yashil sertifikatlar” tizimi joriy qilindi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PQ-156-son “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi,

Energetika vazirligi va “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatining elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan foydalangan holda ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi “yashil energiya” sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich:

2023-yil 1-iyuldan boshlab — “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun;

2023-yil 1-oktabrdan boshlab — quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalarida hamda qayta tiklanuvchi boshqa energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun joriy etish belgilandi.

Mazkur tizimga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy foydalanuvchiga (tovarlar ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar) sotadi va bu bilan energiya ning “tozaligi”ga kafolat beradi. Ushbu tizimlar barcha rivojlangan hamda 50 dan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy qilinib, 2022-yilda uning bozori hajmi 23,4 mlrd. dollarini tashkil qilgan bo‘lib, 2030 yilga kelib bu ko‘rsatkich 110,9 mlrd. dollarni tashkil qilishi kutilmoqda. Xalqaro sertifikatlash tashkilotlaridan Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sertifikatlash xalqaro jamg‘armasi (The International Tracking Standard Foundation – I-REC) standartlari 50 dan ortiq mamlakatlarda (Xitoy, BAA, Turkiya, Malayziya, Braziliya, Meksika va b.) amal qiladi. Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o‘z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish (Evropa Ittifoqida sertifikatlar majburiylashtirilmoqda), xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan “yashil” investitsiyalar va “yashil” kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda 2026-yilga borib umumiy quvvati 1 247 MVt bo‘lgan 5 ta quyosh elektr stansiyasi va umumiy quvvati 3 100 MVt bo‘lgan 7 ta shamol elektr stansiyalari hamda umumiy quvvati 868 MVtga teng bo‘lgan gidroelektr stansiyalari (keyingi o‘rinlarda – GES) ishga tushirilishi natijasida mahallaiy ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun o‘z mahsulotlarini “yashil” energiya asosida ishlab chiqarganligini ko‘rsatish

hamda barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro standartlarni (GHGP, CDP, RE100) bajarishda sertifikatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish.

“Yashil energiya” tizimini joriy etilishini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi ““Yashil energiya” sertifikatlari joriy etilishini kengaytirish va “yashil moliyalashtirish” mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 515-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar (generatsiya obyektlari) va ularning xaridorlarini (ishtirokchilarni) ro'yxatdan o'tkazish shartlari, “yashil energiya” sertifikatlarini muomalaga chiqarish, ularning savdosini onlayn platforma orqali amalga oshirish tartibini nazarda tutuvchi “Yashil energiya” sertifikatlarini berish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi;
- “yashil energiya” sertifikatlarini muomalaga chiqarish hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tushadigan mablag‘lar vazirlik huzuridagi “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” loyiha ofisining alohida maxsus hisobvaraqlarida jamlanishi belgilandi;
- “yashil energiya” sertifikatlari birjalar va birja faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hamda birja savdolari qoidalariga muvofiq tovar-xomashyo birjasi orqali “yashil energiya” sertifikatlarini sotishga mo‘ljallangan “yashil energetika seksiyasi”da sotilishi belgilandi.

2024-yil boshida Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiya uchun **ilk bor 2000 dona “Yashil energiya” sertifikatlari** emissiya qilindi. Shu bilan birga, ilk bor Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sertifikatlash tashkiloti (I-REC) platformasida “O‘zbekgidroenergo” AJga tegishli 4 ta generatsiya obyektlari ro'yxatdan o'tkazilgan. O‘z navbatida, “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan ushbu sertifikatlarni tovar-xom ashyo birjasida e'lon qilish va sotish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq qisqartirilgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosi mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida Jahon bilan birgalikda iCRAFT loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishlari boshlandi.

Loyihasi doirasida Jahon banki huzuridagi “Uglerod aktivlari transformativ fondi” (***Transformative Carbon Asset Facility – TCAF***) moliyaviy ko‘magida O‘zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko‘maklashish maqsadida **45 mln.** dollarlik mablag‘larni 2024-2028 yillar davomida jalb qilinishi ko‘zda tutilgan.



TCAF – Jahon bankning trast fondi bo‘lib mamlakatlarning uglerod narxini bozorga chiqarish va xususiy sektorga past uglerodli texnologiyalarga sarmoya kiritishga yo‘naltirilgan sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi

2023-yil 19-iyun kuni Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasida O‘zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko‘maklashish (Innovative Carbon Resource Application for Energy Transition – iCRAFT) loyihasi yuzasidan muzokaralar o‘tkazildi. Muzokaralarda O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Adliya vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Hidrometeorologiya xizmati agentliklari ishtirok etdi. Muzokarada mamlakatda energiya resurslarining tarif islohotlarini amalga oshirish natijasida qisqartirilayotgan issiqxona gazlari savdosini yo‘lga qo‘yish loyihasi 2 ta komponentdan iborat bo‘lishi belgilandi. Shu bilan birga, Jahon banki tomonidan



institutsonal salohiyatni rivojlantirish, issiqxona gaz emissiyasini nazorat qilish infratuzilmasini yaratishga qaratilgan texnik ko‘mak ajratilishi belgilandi. Muzokaralar davomida loyiha doirasida Jahon banki hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi o‘rtasida imzolanishi rejalashtirilayotgan ERPA, MOPA va Qabul qiluvchi davlat shartnomasi (Host Country Agreement – HCA) hujjatlari ko‘rib chiqildi va mazkur hujjatlar yuzasidan muzokaralar o‘tkazildi. Muzokaralar natijasida Jahon banki delegatsiyasi va O‘zbekiston delegatsiyasi o‘rtasida tegishli bayonnoma imzolandi.

Mazkur loyihani samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi “Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-271-son qarori qabul qilindi. Qarorda Iqtisodiyot va moliya

vaziriga O‘zbekiston Respublikasi va Jahon banki o‘rtasidagi loyihani amalga oshirish yuzasidan moliyaviy bitimlarni O‘zbekiston Respublikasi nomidan imzolash vakolati berildi. Loyiha doirasida mamlakatda energetika sohasida islohotlarini amalga oshirish natijasida qisqaradigan issiqxona gazlari savdosi quyidagi komponentlarga asosan yo‘lga qo‘yilishi va shartnomalar belgilandi:

1-komponent: Kamaytirilgan emissiyani sotib olish shartnomasi (*Emission Reduction Purchase Agreement – ERPA*) doirasida issiqxona gazlari **uglerod savdosi simulatsiyasi** sifatida Jahon bankiga o‘tkazilib, O‘zbekistonga qaytariladi va **20 mln. dollarlik** grant mablag‘lari ajratiladi.

2-komponent: Yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi (*Mitigation Outcome Purchase Agreement – MOPA*) doirasida qisqartirilayotgan issiqxona gazlarini halqaro uglerod savdosi amalga oshirilib, Jahon bankiga qaytarib bo‘lmaydigan tarzda to‘liq o‘tkaziladi va **25 mln. dollarlik** mablag‘lar ajratiladi. Loyiha doirasida 1,25 mln AQSh dollari Jahon banki orqali O‘zbekiston nomidan Moslashish va emissiyalarni qisqartirish global jamg‘armasiga

Bundan tashqari mazkur loyihani amalga oshirish uchun **2,0 mln.dollar** miqdorida texnik yordam jalb qilinadi. Mazkur texnik ko‘mak O‘zbekiston hukumatining milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC) maqsadlarini va Prezidentning PQ-436-son qaroridagi "Issiqxona gazlari emissiyasini inventarizatsiya qilish, hisobot berish va nazorat qilish davlat tizimini rivojlantirish" va MRV tizimini yaratish uchun yo‘naltiriladi. Shuningdek, qaror bilan loyiha doirasida jalb qolingani mablag‘lar mamlakatda quyidagi islohotlarni amalga oshirilishiga saflanishi belgilandi.

Loyiha natijasida jalb qilingan mablag‘lar quyidagicha quyidagi yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi:

Asosiy yo‘nalishlar	Mas‘ul idoralar	Moliyalashtirish miqdori* (mln AQSh doll.)
1-komponent: Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish		
1.1-subkomponent: UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zgidromet	6,00
Issiqxona gazlari kadastri (rasmiiy statistika ma‘lumotlariga asoslangan issiqxona gazlarining chiqarilishi va tutib qolinishini tavsiflovchi tizimlashtirilgan ma‘lumotlar jamlanmasi)		
Issiqxona gazlari reyestri (issiqxona gazlarining chiqarilishi to‘g‘risida hisobotlarni o‘z ichiga olgan axborot tizimi)		
Uglerod birliklari reyestri ("yashil" loyihalar ro‘yxatidan o‘tkaziladigan, uglerod birliklari va ular bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi yuritiladigan axborot tizimi)		
Ma‘lumot va axborot markazi		
1.2-subkomponent: "Yashil" o‘sish va uglerod savdosi bo‘yicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	2,00
1.3-subkomponent: Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish (issiqxona gazlari emissiyasi savdosi, loyihalarni ko‘rib chiqish, MRV, iCRAFT loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring yuritish va boshqalar)	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	7,00
Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash		
Loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash		
UNFCCC talablari asosida loyihani ko‘rib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash		
Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika)		


“Yashil energiya” sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish		
2-komponent: Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish		
2.1-subkomponent: Energy Sector Reforms (energiya regulatori va UzPower Trade tashkil etish; energiya bozoriga o'tish; energetika sohasidagi huquqiy, tartibga solish, rejalashtirish va institutsional islohotlar, shuningdek, yangi o'quv markazini tashkil qilish va boshqalar)	Energetika vazirligi, Strategik islohotlar agentligi	18,00
2.2-subkomponent: Energiya tariflari (subsidiya) islohotlari va unga taalluqli bo'lgan aloqa kampaniyalari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi	2,00
Samarali tarif siyosati, narxlarni shakllantirish va amalga oshirish		
Aloqa kampaniyalarini ishlab chiqish		
2.3-subkomponent: Ijtimoiy zaif uy xo'jaliklarini energiya tariflari islohotlaridan himoya qilish bo'yicha ijtimoiy yordam faoliyati (ijtimoiy xavfsizlik tarmog'i tizimini, ijtimoiy ro'yxatlarni va boshqalarni kuchaytirish)	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi	5,00
2.4-subkomponent: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (uy-joylarga quyosh panellari, quyosh suv isitkichlarini o'rnatish va boshqalar) hamda energiya samaradorligini oshirish choralari (issiqlik nasoslari, quyosh suv isitkich va sovitkich tizimi va boshqalar) ishlab chiqish va pilot loyihalarini amalga oshirish	Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	5,00

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi PQ-271-son qarori.




Marokash qirolligining Marokash shahrida Butunjahon ijtimoiy himoya forumida Jahon banki guruhi va Xalqaro valyuta jamg'armasining Marokashda bo'lib o'tgan yillik yig'ilishlari doirasida O'zbekiston hukumati va Jahon banki vakillari o'rtasida **iCRAFT** loyihasini amalga oshirish uchun **46,25 million dollar** miqdoridagi moliyalashtirish to'g'risidagi bitim imzolandi. iCRAFT loyihasi doirasida taqdim etilgan mablag'larning bir qismi kam ta'minlangan oilalarni energetik islohotlaridan himoya qilish uchun sarflanishi, jumladan, loyiha “yashil” iqtisodiyotga o'tish bo'yicha davlat dasturini va energetika sohasini isloh qilishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashi belgilandi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida energetika sohadagi islohotlarni tahlil qilish va kuzatib borish maqsadida Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlarni yig'ish ularni tahlil qilish kelajakdagi holatlarni prognoz qilish va o'zgarishlarni baholab borish imkonini beruvchi MRV modeli jalb qilindi va tegishli ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Loyihaning birinchi bosqichini amalga oshirish maqsadida 2022-yil ko'rsatkichlaridan foydalanildi va shu davr bo'yicha natijalar tahlil qilindi.



Ma'lumot uchun: MRV modeli – Energetik islohotlari natijalarini tahlil qilish uchun Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli model bo'lib, mazkur model unga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida bir yil davomida islohotlar natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi emissiyalari hajmini hisoblab beradi

Loyiha doirasida tanlangan davr bo'yicha Modeldan olingan va boshqa shu sohaga tegishli ma'lumotlar tahlillari natijasida Yillik hisobot tayyorlandi va Jahon bankiga taqdim. Hozirda Yillik hisobot mustaqil xalqaro verifikator tomonidan verifikatsiyadan o'tkazish jarayoni davom etmoqda. Yillik hisobot muvofaqiyatli verifikatsiyadan o'tkazilganidan so'ng loyiha doirasida ajratilgan mablag'larning bir qismi O'zbekistonga jalb qilinadi.



Iqtisodiyot va moliya vazirligining tashabbusi bilan Iqlim o'zgarishi sohasida Koreya Respublikasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Koreya vazirliklari bilan birgalikda bitim loyihasi ishlab chiqildi hamda 2023-yilning iyun oyida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Koreya Respublikasi Hukumati o'rtasida Iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Hadli bitim imzolandi

Ushbu bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-oktabrdagi "Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-339-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Bitim mamlakatlar o'rtasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida hamkorlik qilish hamda Koreyaning zamonaviy texnologiyalarini O'zbekistonda joriy qilish natijasida issiqxona gazi emissiyalarini qisqartirish va ularni xalqaro savdosini yo'lga qo'yish iqlimga chidamli iqtisodiyotga o'tishda sheriklikni amalga oshirishga qaratilgan. Bitim doirasida quyidagilar nazarda tutilmoqda:

- qishloq va o'rmon xo'jaligida issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirish, iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish;
- iqlim o'zgarishini modellashtirish, bashorat qilish va kuzatish bo'yicha hamkorlik olib borish;
- tomonlar iqlim o'zgarishiga javob beradigan hamda issiqxona gazlari ta'sirini yumshatishga mo'ljallangan texnologiyalarni sanoat tarmoqlarida qo'llash bo'yicha choralarni ishlab chiqadi;
- bitim bajarilishini muvofiqlashtirish uchun ikki davlatning vakillaridan iborat O'zbekiston–Koreya Qo'shma qo'mitasi tashkil etiladi. Qo'mita yig'ilishlari yiliga 1 marta navbatma-navbat Koreya va O'zbekistonda o'tkaziladi va hamkorlik bo'yicha ish rejalar ishlab chiqiladi hamda loyihalarni qo'llash samaradorligi baholanadi;
- tomonlarning tadbirkorlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlari iqlim muammolarini hal qilishda hamkorlikda sa'y-harakatlarni amalga oshir.

Bitim doirasidagi hamkorlikda issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirishga oid loyihalar ishlab chiqiladi, iqlim o'zgarishi bo'yicha mutaxassislar o'rtasidagi almashinuvlar amalga oshiriladi hamda ularning malakasi oshiriladi, issiqxona gazlari tashlanmalarini monitoring qilish maqsadida Koreya tajribasi asosida hisobot va tekshiruv tizimi yo'lga qo'yiladi, iqtisodiyotga "yashil" texnologiyalar keng jalb qilinadi va issiqxona gazlari tashlanmalari bo'yicha xalqaro majburiyatlar o'z vaqtida bajariladi. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan Qo'shma qo'mitaga nomzodlar tasdiqlandi va Koreya tomonidan Qo'shma qo'mitaga nomzodlar tasdiqlanish jarayoni ketmoqda. Qo'mita to'liq tasdiqlangandan so'ng issiqxona gazlarini qisqartirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishni tartibga soluvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

2022-yilning oktabr oyida O'zbekiston va Yaponiya hukumatlar o'rtasida iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazi emissiyasini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy "yashil" texnologiyalarni jalb qilishni ko'zda tutuvchi Qo'shma moliyalash mexanizmi (Joint Credit Mechanism – JCM) yo'lga qo'yilishi bo'yicha imzolangan Memorandumga asosan ikki davlat vakillaridan iborat bo'lgan Qo'shma kengash tarkibi tasdiqlandi


Ma'lumot uchun: Qo'shma moliyalash mexanizmi – rivojlanayotgan mamlakatlarda JCM loyihalari doirasida qisqartirilgan issiqxona gazi emissiyalarining ma'lum bir qismini olib ketish evaziga loyiha turiga va shartlariga qarab Yaponiyaning zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish yoki loyiha xarajatlarining bir qismini qoplab berish bo'yicha hamkorlik tizimi *хусобланади*.



Qo'shma kengash quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- issiqxona gazi emissiyalarini qisqartirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish tartib qoidalar va mexanizmlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- loyihalarini ishlab chiqilishi va ularni amalga oshirishini umumiy muvofiqlashtirish, loyihalar doirasida ekologik jihatdan afzal, shu jumladan energiya samarador va resurslarni tejovchi, chiqindisiz, atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan Yaponiya va Koreyaning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu yo'nalishda mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha hamkorlik qilishni qo'llab quvvatlash;

– tanlab olingan loyihalarni hukumatlar o‘rtasida kelishilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish va loyihalarni amalga oshirish natijasida qisqartirilgan issiqxona gazlarini ishtirokchilar o‘rtasida taqsimotini amalga oshirish.



Hozirgi kunda JCM loyihalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi mexanizmlar va tartib qoidalar tasdiqlash uchun Qo‘shma qo‘mida a‘zolari tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon banki va YETTB bilan birgalikda Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash va “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish bo‘yicha 2050-yilgacha uzoq muddatli strategiyani (Long Term Decarbonisation Strategy 2050 – LTS) ishlab chiqish loyihasi yo‘lga qo‘yildi



Ma’lumot uchun: Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050 yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan o‘zlarining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim.

Strategiya doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod neytralligiga erishish uchun amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbir va loyihalar, talab qilinadigan kapital qo‘yilmalar hajmi ko‘rsatilgan investitsiya rejasi tarmoqlar kesimida tayyorlanadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlikda davlat ulushi ustun mavqeyga ega bo'lgan korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etish hamkorlik qilmoqda

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat ulushi ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarda Atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (Environmental, Social and Governance – ESG) tamoyillarini joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqildi, o'rnatilgan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishilib Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi. Mazkur qaror loyihasida quyidagilarni o'z ichiga olgan:



- “yashil” investitsiyalar va kreditlar uchun texnik tartibga solish talablarini ishlab chiqish, shuningdek rag'batlantiruvchi fiskal va monetar imtiyozlarni o'rganib chiqish;
- amaldagi va/yoki yangi “yashil” bo'lmagan loyihalarga bosqichma-bosqich moratoriy kiritishni imkoniyatlarini o'rganib chiqish;
- ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarning tegishli boshqaruv organlarida SDG, CSR, ESG tamoyillarini joriy etish;
- ISO14000 Atrof-muhitni muhofaza qilish standartlarini joriy qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- korxonalarning yillik hisobotlarida, korxonaning nomoliyaviy hisobotlarida, jumladan yirik sanoat korxonalarida energiya auditni joriy qilish, ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini davriy e'lon qilib borishni nazarda tutuvchi boshqaruv siyosatini tasdiqlash va uni joriy etish ko'zda tutilgan

Mazkur qaror loyihasi qabul qilingandan so'ng quyidagi natijalarga erishish kutilmoqda:

- ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarning tegishli boshqaruv organlarida SDG, CSR, ESG tamoyillari joriy etiladi;
- ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalar nomoliyaviy yillik hisobotlarida, energiya audit va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini davriy e'lon qilib borish bo'yicha boshqaruv siyosatini ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;
- nomarkazlashtirish siyosati davom ettiriladi, “yashil” iqtisodiyotga o'tish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari faoliyati takomillashtiriladi.

Bugungi kunda mazkur qaror loyihasi tasdiqlash jarayonida bo'lib 2024-yilning ikkinchi yarmida tasdiqlanishi kutilmoqda.

Yevropa ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan “Hokimlarning Global kelishuv kotibiyati tomonidan iqlim va energetika masalalari bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash” (Support to the Secretariat of the Global Covenant of Mayors for Climate and Energy – GCoM) loyihasi amalga oshirilmoqda

Loyihaning maqsadi shahar va tumanlar darajasida iqlim o‘zgarishini oldini olish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, “yashil” iqtisodiyot hamda “yashil” energetikani rivojlantirish hisoblanadi.



Shuningdek, loyiha xorijiy hamkor tomonidan moliyalashtirilishi hamda keyingi o‘rinlarda hududlarga investitsiyalar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Mazkur loyiha doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri, Xorazm viloyatining Urganch shahri, Buxoro viloyatining Buxoro shahri, Namangan viloyatining Namangan shahri va Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani

tanlab olinib, dastlabki o‘rinda ushbu hududlar bo‘yicha harakatlar rejasi ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, xar bir hudud bo‘yicha ishlab chiqilgan harakatlar rejasining tahlili natijasiga ko‘ra eng maqbul deb topilgan 2 ta hudud tanlab olinishi hamda ushbu hududlar moliyalashtirilishi hamda ularga investitsiyalar yo‘naltirilishi nazarda tutilgan.

Mazkur loyihaning dastlabki muhokamasi 2023-yil 12-yanvar kuni Yevropa ittifoqi ekspertlari, Hokimlarning Global kelishuv kotibiyati va tanlab olingan hududlarning mas‘ullari ishtirokida bulib o‘tdi, shuningdek 2023-yil 22–24-fevral kunlari Yevropa ittifoqi ekspertlari hamda Hokimning global kelishuvi vakillari tomonidan mazkur loyihaning mazmun-mohiyatini to‘liq tushuntirish bo‘yicha Toshkent shahrida seminar tashkil qilindi va unda tanlab olingan hudud mas‘ullari o‘z taqdimot materiallari bilan ishtirok etishdi. Ushbu loyiha doirasida iqlim va barqaror energetika sohasida tadbirlarni rejalashtirish maqsadida ular uchun “Iqlim bo‘yicha harakatlar rejasi”ni ishlab chiqish ishlari boshlandi. Mazkur loyiha doirasida Yevropa ittifoqi esperti - Guido Matey, Hokimlarning Global kelishuv kotibiyati va GCoM loyiha direktori – Puyero Remiti ishtirokida 2023-yil 26–29-iyun kunlari Toshkent shahrida seminar bo‘lib o‘tdi. Ushbu seminar da xorijiy ekspertlar tomonidan “Iqlim bo‘yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqishning hozirgi holati haqida ma‘lumot berilishi, tanlab olingan shaharlarga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy xavflar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijalarini taqdim etilishi, muhokama qilingan xatarlar bilan bog‘liq bo‘lgan moslashish harakatlarining taqdimoti bo‘lib o‘tishi ko‘zda tutilgan. Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining xorijiy ekspertlar tomonidan Tabiatga asoslangan moslashuv harakatlari va yechimlari,



Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, Iqlim loyihalarining ko'lamini va tuzilishini aniqlash va chiqindilar va oqava suvlarni boshqarish mavzusida 2023-yil 27–29-sentabr kunlari navbatdagi seminar bo'lib o'tdi. Ushbu seminar yakunida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri, Xorazm viloyatining Urganch shahri, Buxoro viloyatining Buxoro shahri, Namangan viloyatining

Namangan shahri va Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani tomonidan GCoM tashabbusiga qo'shilish xatlari imzolandi. Mazkur loyiha doirasida ishtirokchi hududlardan loyihani amalga oshirishiga mas'ul bo'lgan mahalliy hokimiyat xodimlari safidan ishchi guruh tashkil qilindi. Shuningdek, mazkur loyiha dastlabki muhokamasini o'tkazish hamda keyingi o'rinlarda harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadida Yevropa ittifoqi ekspertlari hamda Hokimlarning Global kelishuvi kotibiyati vakillari tomonidan seminar tashkil etildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan O'zbekistonda yo'lga qo'yilgan Global kelishuv tashabbusi (UN Global Compact) doirasida respublikada jadal ishlar amalga oshirilmoqda



Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan Global kelishuv tashabbusi xususiy sektorda korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini (CSR, ESG) joriy qilishga ko'maklashish bo'yicha xalqaro tashabbus hisoblanadi. Hozirda dunyoning 160 dan ortiq davlatlardagi 15 mingdan ziyod kompaniyalar, 4 ming NNTlari, 70 dan ortiq biznes-tarmoqlarini birlashtiradi. Mazkur tashabbus quyidagi instrumentlar orqali xususiy sektorga ekologik mas'uliyatni kuchaytirish, "yashil" texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy

qilishni rag'batlantirish, ijtimoiy mas'ul tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha ko'maklashadi:

- xorijiy ekspert jalb qilish orqali ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini faoliyatga tatbiq qilish;
- xalqaro biznes inkubator va akseleratorlari orqali tadbirkorlik faoliyatini transformatsiya qilish va investitsiya jalb qilish;
- xalqaro tadbirlar orqali xorijiy yirik kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ko'maklashish;
- BMT Global kelishuv akademiyasida malaka oshirish, tajriba almashish.

Bugungi kunda mazkur tashabbusga 23 ta O‘zbekiston tashkilotlari va kompaniyalari qo‘shilgan bo‘lib shundan 6 nafari 2023 yilda qo‘shildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda “Energetika, chiqindilar va agrobiznes sohasida metan tashlanmalarini qisqartirish” Dasturini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda


O‘zbekiston Respublikasi Metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha global majburiyat to‘g‘risidagi tashabbus (Global Methane Pledge – GMP)ga 2022-yilda Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan Kambag‘allikni qisqartirish mavzusidagi Xalqaro forum doirasida qo‘shilgan.

***Ma’lumot uchun:** GMP – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Doiraviy Konvensiyasi ishtirokchilari konferensiyasining 26-sessiyasida ilgari surilgan Global Metan Garovi (Global Metan Pledge) metanni kamaytirish bo‘yicha xalqaro majburiyat tashabbusi bo‘lib uni imzolagan davlatlar 2030-yilgacha metan emissiyasini 2020 yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish bo‘yicha hissa qo‘shish uchun ixtiyoriy harakatlar qilishga roziligini bildiradi.*



GMP tashabbusi maqsadlarini amalga oshirish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Metan chiqindilarini kamaytirish milliy dasturi”ni ishlab chiqish uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot texnik yordam jalb qilgan holda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlar olib bormoqda. Dastur doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi binosida chiqindini qayta ishlash va agrobiznes sektorlarida metan emissiyasini qisqartirish va ushbu sektorlarda metan emissiyasi hajmlarini o‘lchash, hisobot berish va kamaytirish jarayonlarini takomillashtirish masalasida yig‘ilish tashkillashtirildi hamda yuqorida keltirilgan masalalar bo‘yicha Energetika vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Tabiat resurslari vazirligi, Veterinariya qo‘mitasi, Hududgazta‘minot, Transgaz va O‘zbekneftigaz mas‘ul xodimlari bilan fikrlar almashildi hamda vazifalar belgilab olindi. Vazirlik YETTB bilan hamkorlikda vazirlik va tashkilotlarning ushbu dastur doirasida vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqib, metan tashlanmalarini aniqlash uchun zarur ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida tegishli jadvallar shakllantirildi va tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Bugungi kunda, YETTB tomonidan respublika hududlaridagi metan gaz emissiyasini o'rganish bo'yicha Sputnik orqali ma'lumotlar olinib tahlil qilib borilmoqda.



Kelgusida ushbu tadqiqot natijalari, GMPga muvofiq, O'zbekistonning bazaviy metan emissiyasi darajalarini yaxshilashga hamda mazkur emissiyalarni qisqartirish borasidagi investitsiya imkoniyatlarini aniqlashga yordam berishi ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-son qarori tasdiqlandi



Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Iqtisodiy va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

Qarorda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish doirasida xorijiy tashkilotlar hamkorligida “yashil” o‘shishni yangilangan yo‘nalishlari orqali iqtisodiy rivojlanishning barqaror yo‘lini va ushbu ustuvor yo‘nalishlarga kiritilgan muayyan tarmoq ustuvorliklari bilan o‘zaro bog‘liq asosiy mavzularni har bir vazirlik va idoralarning o‘z vakolati doirasida “yashil” iqtisodiyot faoliyati bilan shug‘ullanishga mas’ul bo‘linmalar tashkil etilishi, O‘zbekiston Respublikasida vazirlik va idoralarning “yashil” iqtisodiyot o‘tish va “yashil” texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek “yashil” iqtisodiyot faoliyati sohasida uch yilga mo‘ljallangan “yo‘l xarita”larni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi, Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari rahbar o‘rinbosarlarining biriga “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha muhim tamoyillari va qo‘shimcha vazifalari belgilangan. Mazkur qarordan quyidagi natijalar kutilmoqda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorida belgilangan chora-tadbirlari orqali tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorlikni kuchaytirish, sanoat va iqtisodiyotning yashil va kam uglerodli rivojlantirish, samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiya, barqaror va inklyuziv urbanizatsiyani rivojlantirish hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davridan eng ko‘p zarar ko‘rgan odamlar va joylarni qo‘llab-quvvatlashga erishiladi.

Shuningdek, Mazkur qaror loyihasi bilan Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari shtat birliklari doirasida rahbar o‘rinbosariga bo‘ysunuvchi “yashil” iqtisodiyot faoliyati bilan shug‘ullanishga mas’ul bo‘linmani tashkil etiladi hamda “yashil” iqtisodiyot faoliyati sohasida uch yilga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi, “yashil” iqtisodiyot masalalari bilan shug‘ullanishga mas’ul bo‘linmalarining maqsad va vazifalarini nazarda tutuvchi nizomlarni tasdiqlanadi hamda shtat birligi doirasida mutaxassislar bilan to‘ldiriladi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi ““Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-156-son qaroriga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” loyiha ofisi tashkil qilindi

Markazning asosiy vazifasi “Yashil” iqtisodiyotni ilgari surish va “yashil” o‘shish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish, “yashil” loyihalarni ishlab chiqish va baholash, “yashil energiya” sertifikatlarni muvofiqlashtirish, issiqxona gazi emissiyasi

monitoring, hisobot va tekshirishini olib borish, issiqxona gazi emissiyasi savdosini muvofiqlashtirish, “yashil” iqtisodiyot bo'yicha hamkor tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat. Shuningdek markaz quyidagi vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi:

“yashil” investisiya loyihalarini shakllantirish va investorlar bilan muzokaralar o'tkazishda ishtirok etish, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, “yashil energiya” sertifikatlari tizimini yuritish, xususan generatsiya obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, “yashil energiya” sertifikatlarini chiqarish, generatsiya obyektlariga berish va ularning harakati hisobini yuritish, issiqxona gazlarini qamrab oluvchi iqlim o'zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirish (MRV) tizimi bazasini yuritish, issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish, uglerod birliklarining reestrini shakllantirish va yuritish, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, xalqaro va respublika darajasida issiqxona gazi savdosini (Emission Trade System - ETS, Joint Credit Mechanism - JCM va boshqalar) tartibga solish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, ushbu sohadagi loyihalarni amalga oshirish davrida monitoring va hisobotlarni yuritish, barqaror “yashil” o'sish va “yashil” iqtisodiyotga o'tishga doir loyihalar va chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar va dastur loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, xorijiy konsultantlar bilan birgalikda “yashil” iqtisodiyotni ilgari surish va “yashil” o'sish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro donor tashkilotlarning texnik ko'magini jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, donorlarning muvofiqlashtirish guruhi faoliyatini tashkil qilish, 2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturi hamda ularni amalga oshirish Harakatlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uni Idoralararo kengash bilan o'zaro muvofiqlashtirishga ko'maklashish, “yashil” iqtisodiyot onlayn platformasini doimiy faoliyatini yuritish, energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon banki bilan birgalikda “Mamlakatdagi iqlim o‘zgarishi va taraqqiyot bo‘yicha hisoboti”ni ishlab chiqib taqdim qildi



Malumot uchun: Iqlim o‘zgarishi va taraqqiyot to‘g‘risidagi milliy hisobot (Country Climate and Development Report – CCDR) Jahon bankining o‘ziga xos va takrorlanmas hisoboti bo‘lib, iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror rivojlanishga yordam beruvchi asosiy diagnostika vositasidir

2023-yil 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro biznes markazida Iqlim o‘zgarishi va rivojlanish to‘g‘risidagi milliy hisobotning taqdimotiga bag‘ishlangan yuqori darajadagi tadbir tashkil qilindi. Hisobot iqtisodiyotning energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, sanoat kabi muhim tarmoqlarini qamrab oladi. Mazkur hisobotda energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanish, ifloslanish, iqlim va atrof-muhitga ta’sirlarni kamaytirish hamda iqlim o‘zgarishi ta’siriga chidamliligini oshirishni ta’minlovchi tanlangan o‘sish modeli bo‘yicha aniq yechimlar taklif etiladi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalariga, shuningdek, “yashil” urbanizatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu milliy hisobot barqaror rivojlanish maqsadlarini hisobga olgan holda hukumatlar, hamkorlar va fuqarolarning iqlim o‘zgarishi sohasida



muvofiqlashtirilgan ishtirokini ta’minlash uchun platforma yaratish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun xalqaro moliya institutlari, rivojlanish tashkilotlari va xususiy sektor resurslarini samarali safarbar qilish imkoniyatlarni taqdim etadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida yashil iqtisodiyot sohasiga oid ma'lumotlarni yig'ish va ularni taqdim etish hamda yashil turdagi xizmatlarni birlashtiruvchi Yashil iqtisodiyot onlayn platformasi tashkil etildi

Yashil iqtisodiyot platformasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan (green.imv.uz). Mazkur platforma mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha asosiy omillardan biri hisoblanadi. Platforma quyidagi vazifalarni bajaradi:

respublikaning yashil iqtisodiyotga doir ma'lumotlarini yig'ish, ularni tahlil qilish va qayta ishlash, hamda yig'ilgan ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish, yashil iqtisodiyotga doir faoliyatlar bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish va ma'lumot berish, respublikada amalga oshirilayotgan yashil loyihalar bo'yicha ma'lumot berish, iqlim o'zgarishiga doir ma'lumotlarni yig'ish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va moslashish bo'yicha sa'y-harakatlarni monitoring va nazorat qilish, respublikadagi issiqxona gazlari emissiyalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish qayta ishlash va natijalar bo'yicha foydalanuvchilarga ma'lumot berish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo'yicha aholi va foydalanuvchilarni salohiyatini oshirishga ko'maklashish, yashil iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi sohasida tayyorlangan hisobotlarni to'plash va foydalanuvchilarga taqdim etish, yashil iqtisodiyot yo'nalishida aholi va foydalanuvchilarning fikr va mulohazalarini to'plash.

Platformaning faoliyati va nazorati Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" loyiha ofisi tomonidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yashil turdagi faoliyatni tasniflash uchun qo'llaniladigan "Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi" ishlab chiqildi



Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrda "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida" 561-son qarori qabul qilindi.

Ma'lumot uchun: *Yashil taksonomiya – bu barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan va mavjud tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, energiya tejash va iqlim o'zgarishini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan foydalanish darajasini pasaytirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar toifalari va aktivlarini tasniflash tizimi hisoblanadi.*

Milliy yashil taksonomiya, ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat iqlim va ekologik barqarorlik sohasidagi mamlakat maqsadlariga erishish uchun moliyaviy tizimlarni “yashillashtirish”ga ko'maklashadi va banklar va boshqa moliya institutlariga “yashil” moliyaviy mahsulotlarni yaratishda yordam berish orqali barqaror kapital bozorini (sustainable capital) rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar uchun hujjat qanday iqtisodiy va investitsiya faoliyatini “yashil” deb hisoblash mumkinligini aniqlashning umumiy asoslarini taqdim etishga ko'maklashadi. Milliy taksonomiyalar asosan mamlakat iqtisodiyotining xususiyatlarini va kam uglerodli rivojlanishning tanlangan traektoriyalarini aks ettiradi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Germaniya hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan birgalikda Yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash bo'yicha salohiyatni oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil qilindi

Mazkur seminarlarni tashkil etishdan maqsad respublika va mahalliy davlat ijro etuvchi organlarining “yashil” iqtisodiyotga o'tishini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni doimiy baholab borish bo'yicha salohiyatini oshirish hamda ushbu yo'nalishda doimiy faoliyat yurituvchi mahalliy trenerlar tayyorlash hisoblanadi.



Seminarlarda “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash, issiqxona gazlarini qisqartirish va ularning savdosi, xalqaro uglerod bozorlari, emissiya savdosi tizimlari (ETS, CDM, JCM), Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), xalqaro va mahalliy ekologik huquq, “yashil” urbanizatsiya, shaharsozlik, binolar va qurilish, infratuzilma, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati, iqlim moliyasi va vositalari, "yashil" soliqqa tortish tizimi, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari hamda instrumentlari, “yashil” moliya, iqlimga chidamli qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, “yashil” kreditlar va

obligatsiyalar kabi mavzularda o'tkazildi. Seminarlarda barcha vazirlik va idoralarning yashil iqtisodiyotga mas'ul etib belgilangan xodimlar, oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilari hamda 40 dan ortiq davlat korxonalari va mahalliy banklar xodimlari taklif etildi. Seminar so'ngida mavzularni yaxshi o'zlashtirgan qatnashchilar sertifikatlar bilan taqdirlandi

Ma'lumot uchun: Ushbu seminar-trening O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirildi. Shuningdek, mazkur qarorda "yashil" iqtisodiyot bo'yicha seminarlar doimiy ravishda 2030-yilgacha tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda O'zbekistonda Monitoring, hisobot berish va tekshirish (Measurement Reporting and Verification – MRV) tizimi joriy qilinmoqda

Malumot uchun: MRV – iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish, tahlil qilish, ishlatish va tekshirish tizimidir, shuningdek, ushbu tizim iqlim o'zgarishi sohasida yumshatish, moslashish, moliyalashtirish, salohiyatni oshirish, texnologiyalar transfer qilishga ko'maklashadi.



Ushbu tizimni respublikada joriy etish maqsadida vazirlik timonidan "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishida milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qaror loyihasini qabul qilishdan maqsad 2015-yildagi

Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi doirasida O'zbekiston tomonidan olingan 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazi emissiyasi miqdorini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish majburiyatini bajarish, Parij Bitimining 13-moddasida belgilangan 2024-yilning yakuniga qadar takomillashtirilgan Milliy shaffoflik tizimi (Enhanced Transparency Framework)ni joriy etish majburiyatni o'z vaqtida va samarali bajarish, issiqxona gazlarining chiqarilishini kamaytirish

sohasida iqtisodiy, texnologik va ekologik yo‘nalishlarda xalqaro va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish va hamkorlikni kengaytirish, respublikada issiqxona gazlari emissiyasini doimiy monitoring qilish, ularni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish hamda xalqaro uglerod savdosida ishtirok etish, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarini bajarishni ta‘minlash. Mazkur qaror loyihasida quyidagilar belgilanishi ko‘zda tutilgan:

- O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasi tasdiqlanadi;
- milliy shaffoflik tizimi joriy etilishiga mas’ul organlar belgilanadi;
- milliy shaffoflik tizimi, bu boradagi monitoring va hisobot ishlari to‘liq raqamlashtiriladi, bunda 2024-yil 1-dekabrgacha milliy shaffoflik tizimi onlayn platformasi ishga tushiriladi;
- 2025-yil 1-yanvargacha tajriba-sinov tariqasida muayyan soha, hudud va korxonalarda issiqxona gazlari emissiyasi inventarizatsiya qilinadi.



Loyiha doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) hamda “Expertise France” tashkiloti bilan hamkorlikda mahalliy vazirlik va idoralari uchun iqlim o‘zgarishi sohasida MRV tizimi bo‘yicha salohiyatni oshirishga qaratilgan o‘quv trening tashkil etildi. Mazkur trening MRV tizimini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha Marokash davlatining ilg‘or tajribasi misolida o‘tkazildi. Mazkur tadbirda ishtirokchilarga issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish sohasidagi davlat siyosatini xalqaro talablarga moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda yordam beradi. Uch kunlik trening davomida ishtirokchilar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha Marokash tajribasi bilan tanishadi:

- issiqxona gazlari emissiyalarining milliy inventarizatsiyasi;
- mintaqaviy ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari;
- issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish borasida ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha zarur choralar.


Shuningdek, 2024-yilda Fransiya taraqqiyot agentligi hamda CITEPA hamkorligida Marokashning MRV tizimi onlayn platformasini O‘zbekistonga transfer qilish rejalashtirilgan. Mazkur onlayn platformani joriy etish orqali respublika miqyosida barcha darajadagi issiqxona gazlari emissiyasini hisoblash, monitoring qilish hamda rasmiy hisobotini yuritish imkoniyati yaratiladi.

MRV Platform “Actions and Support” Module Morocco

MOLOCCO

Ma’lumot uchun: Marokashning MRV tizimi bo‘yicha 20 yillik muvaffaqiyatli faoliyati O‘zbekistonning iqlim bo‘yicha harakatlar strategiyasi uchun xalqaro tajriba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Marokash, shuningek, CITEPA dasturiy ta’minotidan foydalangan holda issiqxona gazlari to‘g‘risidagi keng qamrovli ma’lumotlar bazasini tahlil qilish va issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish uchun elektron platformani yuritish bo‘yicha uzoq yillik tajribaga ega.

O nlayn platforma joriy qilinganidan so‘ng, respublikadagi barcha vazirlik, idora, tashkilot va korxonalar o‘z faoliyati va sohasi bo‘yicha issiqxona gazlarini hisoblashning standart uslubiy qo‘llanmalari asosida issiqxona gazlari emissiyasi va yutilishi monitoringi bo‘yicha ma’lumotlarni platformaga joylab borilishi yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur onlayn platforma barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘ladi va ma’lumotlarning shaffofligi ta’minlanadi.



Iqtisodiyot va moliya vazirligi Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) “bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda “yashil” sanoatlashtirish bo‘yicha xususiy sektorni va iqtisodiy siyosatlar bo‘yicha maslahatlar” loyahasini amalga oshirmoqda



Implemented by



***Ma’lumot uchun:** 2023-yil dekabrda Dubay shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP-28)da GIZ hamda vazirlik o‘rtasida qiymati 9 mln. yevro bo‘lgan (grand mablag‘i) “O‘zbekistonda “yashil” sanoatlashtirish bo‘yicha xususiy sektorni va iqtisodiy siyosatlar bo‘yicha maslahatlar” loyahasini amalga oshirishga doir kelishuv imzolangan.*

Loyiha hukumat va xususiy sektor vakillariga O‘zbekistonda yashil sanoatlashtirishni rivojlantirish va energiya samarador ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Shu yo‘l bilan tabiiy resurslarga bog‘liqligi kamaytirilgan uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga imkon yaratadi. Loyihada quyidagi maqsadlar ko‘zda tutilgan:

- seminar va treninglar tashkil qilish orqali 80 nafar vazirlik va idoralar xodimlarini yashil sanoat siyosati bo‘yicha salohiyatini oshirish;
- hamkor tashkilotlarga yashil sanoat siyosatiga qaratilgan 4 ta hujjatlarni ishlab chiqishga yordam berish;
- yashil sanoat siyosatini monitoring qilish imkoniyatini beruvchi tizim yaratish;
- 25 ta kichik va o‘rta hajimdagi korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida CO2 tashlanmalarini eng kami 10 foizga qisqartirishga yordam berish;
- 2 ta sanoat zonasini barqaror ishlab chiqarish bo‘yicha konsepsiyasini ishlab chiqish (eko sanoat zonalariga aylantirish);
- yashil sanotlashtirishga qaratilgan 5 ta startup loyihalarni pilot tarzida amalga oshirish uchun develoPPP xizmat ko‘rsatish markazi (Germaniya) jalb qilish;
- yashil sanotlashtirishga qaratilgan umumiy qiymati 12.4 mln yevro bo‘lgan 14 ta loyihani O‘zbekiston va Yevropa kompaniyalari o‘rtasida amalga oshirishga ko‘maklashish.

2023-yilning 4-dekabr kuni Dubay shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP-28)da Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi ishtirok etdi



Konferensiyada Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasiga vazirning birinchi o'rinbosari Ilhom Norqulov boshchilik qildi va tadbir davomida qancha davlatlar va tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalasida ushrashuvlar tashkillashtirildi.

***Ma'lumot uchun:** Conference of the Parties (COP) bu – BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi (UNFCCC) ishga tushirilganidan beri a'zo mamlakatlarning ambitsiya va mas'uliyati, shuningdek, iqlim o'zgarishi bo'yicha majburiyatlarini aniqlash uchun o'ttiz yildan buyon har yili chaqiriladigan Tomonlar konferensiyasi hisoblanadi.*

Tadbir davomida vazirlik delegatsiyasi quyidagi davlatlar va tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalarida muhokamalar bo'lib o'tdi:

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Taraqqiyot dasturining atrof-muhitni moliyalashtirish bo'yicha ijrochi koordinatori va direktori Pradip Kurukulasuriya bilan uchrashdi o'tkazildi. Uchrashuvda xususiy sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat-xususiy sheriklik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarning tijoriy samaradorligini oshirishdagi yangicha yondashuvlar muhokama qilindi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga yo'naltirilgan qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida tegishli davlat banklari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish mexanizmlari belgilab olindi. Shuningdek, amaldagi milliy banklar orqali respublikaga moliyaviy resurslarni samarali jalb etish maqsadida "Yashil" iqlim jamg'armasi (Green Climate Fund – GCF) bilan hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyodagi infratuzilma bo'yicha mintaqaviy direktori Charlz Kormye bilan uchrash bo'lib o'tdi. Uchrashuv doirasida "yashil" iqtisodiyot bo'yicha hamkorlikka oid masalalar muhokama qilindi. Xususan, iqlim va rivojlanish bo'yicha mamlakat hisoboti (Country Climate and Development Report – CCDD), shuningdek, "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" birinchi innovatsion loyihasi ishlab chiqilgan. Muzokaralar davomida iqlim va rivojlanish bo'yicha mamlakat hisobotining tavsiyalarini hisobga

olgan holda hamkorlikni qayta ko‘rib chiqish va mustahkamlash bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Germaniya hamkorlik tashkiloti (GIZ) Markaziy Osiyo mintaqaviy dasturlar klasteri koordinatori Torsten Brezina bilan uchrashuv o‘tkazdi. Muhokamalarning maqsadi tomonlarning joriy loyihalar holatini muhokama qilish, shuningdek, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hamkorlik yo‘nalishlarini belgilash bo‘ldi. Uchrashuvda donorlar va moliya institutlari tomonidan “yashil” iqtisodiyotga samarali o‘tishni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, mamlakat hududlarida master-rejalarni ishlab chiqish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘rib chiqildi. Uchrashuv yakunida GIZ hamda vazirlik o‘rtasida qiymati 9 mln. yevro bo‘lgan (grant mablag‘i) “O‘zbekistonda “yashil” sanoatlashtirish bo‘yicha xususiy sektorni va iqtisodiy siyosatlar bo‘yicha maslahatlar” loyihasini amalga oshirishga doir kelishuv imzolandi.

Muhammad VI atrof-muhitni muhofaza qilish jamg‘armasining dekarbonizatsiya loyihalari rahbari bilan O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyot va dekarbonizatsiya loyihalarini yanada rivojlantirish masalalari bo‘yicha uchrashuv o‘tkazdi.

Ma’lumot uchun:
Muhammad VI atrof-muhitni muhofaza qilish jamg‘armasi 2001-yil iyun oyida Marokash Qirolligi Muhammad VI tashabbusi bilan tashkil etilgan. Raislik boshidanoq malika Lalla Hasna oliy hazratlariga ishonib topshirilgan.

Yig‘ilish doirasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va iqlim o‘zgarishiga moslashish doirasida xususiy sektorning ishtiroki masalalari ko‘tarildi. Shuningdek, issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish va o‘lchash yo‘nalishlari alohida muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida tomonlar Marokash va O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari bilan qo‘shimcha uchrashuvlar o‘tkazish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash, suv xo‘jaligi

sohasida tajriba almashish va issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish, baholash, o‘lchash zarurligi to‘g‘risida kelishuvga erishdilar.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) vakillari bilan O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni yanada rivojlantirish masalalari bo‘yicha uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy va Sharqiy Osiyo mintaqalari bo‘yicha bosh direktori o‘rinbosari Syaouxun Yan, Iqlim o‘zgarishi va barqarorlik departamenti mutaxassisi Ketlin Enn Kobales va bosh iqtisodchi Begzod Djalilovlar qatnashdi. Muzokaralardan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston hukumati hamda Osiyo taraqqiyot banki o‘rtasidagi O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi natijasida paydo bo‘layotgan qiyinchiliklar, “yashil” iqtisodga o‘tish va “yashil” o‘sish loyihalari hamda istiqboldagi rejalar muhokamasi bo‘ldi. Yig‘ilish doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Osiyo

taraqqiyot banki o'rtasida Iqlim o'zgarishini yumshatish, moslashish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishdagi hamkorlik bo'yicha Anglashuv memorandumini imzolandi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB)ning Iqlim strategiyasi va mintaqaviy harakatlar direktori Dmitriy Gvindadze bilan uchrashuv bo'lin o'tdi. Uchrashuvda janob Gvindadze iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga sarmoya oqimini oshirish maqsadida Misr va Shimoliy Makedoniya tajribasini hisobga olgan holda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha tarmoq strategiyalariga oid yangi yondashuvlarni amalga oshirishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, bir qator tarmoqlarni uglerod neytralligiga o'tkazish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida YTTB va boshqa manfaatdor donorlar hamda milliy tarmoq vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi. Muzokaralar yakunida tomonlar erishilgan barcha kelishuvlarni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida hamkorlikni rivojlantirishga kelishib oldilar.




Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan O'zbekistonda issiqxona gazlari savdosini yo'lga qo'yish maqsadida "Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida" qaror loyihasi ishlab chiqildi va ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi

O'zbekiston Respublikasi 2015-yildagi Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi doirasida (2018-yil ratifikatsiya qilingan) 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazi emissiyasi miqdorini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish majburiyatini olgan.

Parij bitimiga (6.4.-moddasi) muvofiq, davlatlar o'rtasida qisqartirilgan uglerod birliklari savdosi yo'lga qo'yilishi mumkinligi belgilangan. Bunda, sohada shakllangan xalqaro amaliyotga (AQSh, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Saudiya Arabistoni, BAA va boshqa rivojlangan davlatlar) muvofiq davlat o'z hududidagi korxonalar o'rtasida ular

tomonidan chiqariladigan issiqxona gazlarining cheklangan miqdorini belgilaydi, agar korxona mazkur majburiyatni bajara olmasa, davlatga muayyan miqdorda jarima to‘laydi yoki boshqa davlat hududiga kiritilgan investitsiya orqali (jumladan, “yashil energetika” loyihalari doirasida) o‘sha davlatda qisqartirilgan issiqxona gazi birliklarini sotib oladi. Mazkur korxona sotib olingan uglerod birliklari orqali o‘z majburiyatlarini qoplaydi.



Ma'lumot uchun: 2022-yilda jahon uglerod birliklari savdosi hajmi 909 mlrd. dollar tashkil etgan bo'lib bugungi kunda respublikada issiqxona gazlarini qisqartirishga qaratilgan bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar kelib tushgan. Biroq ularni amalga oshirish bo'yicha tartib-qoidalar mavjud emasligi sababli loyihalarni amalga oshirish ishlari to'xtab qolgan.

Shu sababli, respublika hududida uglerod birliklari savdosini yo'lga qo'yish orqali yangi investitsiyalarni olib kirish maqsadida, “Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi Hukumat qarori ishlab chiqildi va Vazirlar mahkamasining 2024-yil 7-martdagi 117-son qarori bilan tasdiqlandi. Qaror bilan quyidagilar belgilandi:

Qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasini xalqaro savdoga chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi Nizom tasdiqlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi xalqaro va respublika darajasida issiqxona gazi savdosini tartibga solish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan ijro etuvchi Milliy organ sifatida hamda uning huzuridagi “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” ishchi organ sifatida ishtirok etishi belgilandi.

Loyihalarni shaffoflik, ochiqlik va bozor tamoyillari asosida tanlab olish va amalga oshirishni ta'minlash maqsadida issiqxona gazlari emissiyasini xalqaro savdoga chiqarishga qaratilgan investitsion loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyillari hamda ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Loyihalar natijasida hosil bo'lgan uglerod birliklari boshqa mamlakatlarning Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar (NDC)ni qoplash maqsadida Xalqaro o'tkaziladigan yumshatish natijalari (ITMO) sifatida foydalanilmaydi.

Shuningdek, uglerod birliklari ixtiyoriy bozori loyihalari, qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasi hajmi va ishlab chiqiladigan verifikatsiyalangan uglerod birliklari hisobini yuritish maqsadida Milliy uglerod birliklari reyestri hamda loyihalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish, tasdiqlash va monitoring qilishning to'liq raqamlashtirilgan tizimi yo'lga qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-156-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi "Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrda "Yashil energiya" sertifikatlari joriy etilishini kengaytirish va "yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 515-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrda "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martda "Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 117-son qarori.
8. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy web-sahifalari: <https://www.imv.uz> <https://www.green.imv.uz>
9. Iqtisodiyot va moliya vazirligining ichki ma'lumotlari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI**

MAS'UL DEPARTAMENT

Yashil iqtisodiyotga o'tish va
rivojlantirishni muvofiqlashtirish
boshqarmasi



MUALLIFLAR

Islamov Shoxzod
Mirzayev Bexruz



TELEFON

(998 71) 203 5050



ELEKTRON MANZIL

green@imv.uz



MANZIL

Istiqlol 29, Toshkent, 100017,
O'zbekiston